

## QOQIO'TDOSHLAR OILASIGA MANSUB AYRIM DORIVOR O'SIMLIKLAR

<sup>1</sup>Shausmanova Roza Mamadjanovna  
O'zMU Biologiya fakulteti o'qituvchisi,

<sup>2</sup>Iskandarova Marjona

O'zMU Biologiya fakulteti Biologiya yo'nalishi 1- bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7483962>

Ma'lumki, o'simliklar dunyosi tabiatning eng katta boyligi hisoblanadi. Shuning uchun o'simliklar olamini har tomonlama chuqur o'rganish, ulardan dorivor, oziq-ovqat sifatida va boshqa maqsadlarda foydalanish, em-xashak xususiyatini hisobga olishimiz hamda har bir tur o'simlikni ilmiy jihatdan bir-biridan ajrata bilishimiz kerak. Undan tashqari bu o'simliklarning foydali hamda zararli xususiyatlarini bilishimiz va unga e'tibor berishimiz lozimdir[3].

Dunyo olimlarining bergan ma'lumotlariga qaraganda, tabiat ne'matlaridan olinadigan dori-darmonlar kimyoviy sun'iy ravishda olinaligan preparatlardan afzalligi va shifobaxshligi bilan ajralib turadi. Chunki o'simliklardan tayyorlangan tabiiy dorilar deyarli asoratsiz hisoblanadi.

Shu ma'noda, ushbu o'rganilayotgan qoqio'tdoshlar oilasi turlari ham respublikamiz frosida munosib o'ringa ega va o'zining xilma-xil foydali xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi [1].

Qoqio'tdoshlar - Asteraceae oilasiga 13000 ga yaqin turkum, 25000 tur kiradi. O'zbekistonda 21 turkumga oid 566 tur o'sadi. Hayotiy shakliga ko'ra oilada bir va ko'p yillik o'tlar ustinlik qiladi. Daraxt, buta va lianalar nihoyatda kam uchraydi. Gullari savatchalarda o'rnashgan. Ular yer sharining turli xil ekologik sharoitda: cho'llarda, dashtlarda, o'tloqlar, o'rmonlar, qumli, toshloq yerlarda, sho'rlangan tuproqlarda va hattoki suvli muhitda ham o'sadi [2,5].

**Turkum. *Achillea* L. - Bo'ymodaron**

***Tur. Achillea millefolium* L. - Oddiy bo'ymadaron**

*Achillea millefolium* L. - Oddiy bo'ymodaron bo'yi 30-70 sm, ba'zan 120 sm gacha etadigan ko'p yillik o'ziga xos xushbo'y o't o'simlik. Poyasi bir yoki bir necha chiziqli tik o'suvchi, yuqori qismi shoxlangan. Ingichka-ingichka ildizlar va yer osti novdalar chiqaradigan ildizpoyasi bor. Bu o'simlikning poyalari to'g'ri o'sadi, odatda to'pguli yaqinidagina shoxlaydi, sal qirrali bo'ladi. Mevasi – yassi tuhumsimon, kulrang pista, cho'zinchoq shaklda bo'ladigan kumushsimon – kulrang tusli yassi urug'li mevadir (1-rasm).




1-rasm. *Achillea millefolium* L. – Oddiy bo‘ymadaron

Turkum. *Anthemis*L. – Zargo‘sh

Tur. *Anthemis tinctoria*L. - Bo‘yoqdor zargo‘sh

*Anthemis tinctoria*L. - Bo‘yoqdor zargo‘sh. Bo‘yoqdor zargo‘sh ko‘p shoxlanadigan, tik o‘sovchi poyali o‘tsimon o‘simlik. Etuk o‘simliklarning balandligi - 25 sm dan 70-80 sm gacha. O‘simlik ko‘p yillik, ammo uni ikki yillik qilib etishtirish ma‘qul, chunki keyinchalik gullar maydalashib ketadi. Bu gulning etiborli jihati shundaki, bu nafaqat moychechakning chiroyli shakli, balki uning iliq tUSDagi to‘q, sof sariq rangda ekanligidir. Zargo‘sh (lot. *Anthemis*) — o‘tsimon o‘simliklarning ko‘p sonli avlodidir, kamdan-kam chala butalar uchraydi, ular qoqio‘tnamolar (lot. *Asterales*) qabilasining qoqio‘tdoshlar oilasiga (lot. *Asteraceae*) mansub. Bu turkum taxminan 170-200 turni o‘z ichiga oladi (turli manbalarga ko‘ra lotincha nomi moychechakning qadimgi grekcha nomidan kelib chiqqan (2-rasm) [2,6].



2-rasm. *Anthemis tinctoria*L. - Bo‘yoqdor zargo‘sh

Turkum. *Matricaria* L. - Moychechak

**Tur. *Matricaria recutita* L.- Qirqmabarg moychechak**

*Matricaria recutita* L. - Qirqmabarg moychechak bir yillik o't. Bargi 15-40 sm. Poyasi bir yoki bir nechta tik yoki ko'tarilib o'sadi, tepa qismidan shoxlangan hidli. Barglari ikki karra patsimon qirqilgan savatchasi geterogam, oq, tilsimon urug'chi gullardan iborat. Iyun- iyul oylarida gullab urug'laydi (3-rasm) [6].



**3-расм. *Matricaria recutita* L. - Qirqmabarg moychechak**

**Turkum. *Cichorium* L. - Sachratqi**

**Tur. *Cichorium intybus* L. - Oddiy sachratqi**

*Cichorium intybus* L. - Oddiy sachratqi ko'p yillik o't o'simlikdir. Bo'yi 90-110 (125) sm gacha etadi. Poyasi tik tukchalar bilan qoplangan, shoxlangan. Uning ildiz osti barglari teskari tuxumsimon cho'ziq, cheti qirqilgan, to'p barglari bandli. Poyada barglari lansetsimon yirik tishsimon qirrali (yuqori qismdagilari tekis qirrali) bo'lib poyada bandsiz. Ketma ket o'rnashgan asosan poyani o'rab turadi. Savatchalari poya va yon novda uchlarida to'p bo'lib yoki bittadan joylashgan qiska gul bandlidir. Gullari ko'k havo ranglidir. Sachratqi o'sish sharoitiga qarab iyundan to oktyabrgacha gullaydi va urug'i etiladi. Mevasi sarg'ish qo'ng'ir rangli uchmali pista (4-rasm) [5].



**4- pacm. *Cichorium intybus* L. - Oddiy sachratqi**

**Turkum. *Calendula* L. - Tirnoqgul**

**Tur. *Calendula officinalis* L. - Dorivor tirnoqgul**

*Calendula officinalis* L. - Dorivor tirnoqgul. Qoqio‘tdoshlar-Asteraceae oilasiga mansub, bo‘yi 30-50 (ba‘zan 60) sm ga etadigan o‘t o‘simlik. Ildizi shoxlangan o‘q ildiz. Poyasi, tik o‘sovchi, asos qismidan boshlab shoxlangan, qirrali bo‘lib, yuqori qismi bezli tuklar bilan qoplangan. Bargi oddiy, bandli teskari tuxumsimon, sertuk, poyada ketma-ket joylashgan. Poyaning yuqori qismi qismidagi barglari bandsiz, tuxumsimon yoki lansetsimon, gullari savatchaga to‘plangan. Mevasi pista. Manzarali va dorivor o‘simlik [4] (5-rasm).



**5- pacm. *Calendula officinalis* L. - Dorivor tirnoqgul**

**Turkum. *Salidago* L.-Salidago**

**Tur. *Salidago sadensis* L. -Kanada salidagosi**

*Salidago sadensis* L.-Kanada salidagosi ko‘p yillik o‘t o‘simlik. Bo‘yi 180 sm. Poyasi tepa qismidan shoxlangan. Ildiz bo‘g‘zidagi barglar cho‘ziq-ellipessimon yoki cho‘ziq, 5-15 sm, poyadagi barglar kichikroq, cho‘ziq-ellipessimon keng qalami. Savatchadagi gullari sariq. O‘rama barglari 4(5) qator joylashgan. Iyun-sentyabr oylarida gullab urug‘laydi (6- rasm).



**6-расм. *Salidago cadensis* L. - Kanada salidagosi**  
**Qoqio‘tdoshlar oilasiga mansub dorivor o‘simliklarning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati bo‘yicha ro‘yxati**

**1-jadval**

№	O‘simlikning nomi	Oziq-ovqat	Dorivor	Manzarali	Efir-moyli	Em-xashak
1	<i>Achillea millefolium</i> L.- Oddiy bo‘ymadaron	-	+	+	+	-
2	<i>Anthemis tinctoria</i> L.- Bo‘yoqdor zargo‘sh	-	+	+	+	-
3	<i>Matricaria recutita</i> L.- Qirqmabarg moychechak	-	+	+	+	-
4	<i>Cichorium intybus</i> L.- Oddiy sachratqi	-	+	-	-	-
5	<i>Calendula officinalis</i> L. - Dorivor tirnoqgul	-	+	+	+	-
6	<i>Salidago sadensis</i> L. - Kanada solidagosi	-	+	+	+	-

Vatanimizda tabiiy xolda o‘sadigan dorivor o‘simliklardan oqilona foydalanish maqsadida ularning ko‘plab o‘sadigan joylarini izlab topish, xaritaga tushirish, yillik yig‘ish miqdorini rejalash hamda dorivor mahsulotni yig‘ish, quritish va saqlash tadbirlarini ishlab chiqishdan iborat. Shu sababli, bu kabi o‘simliklardan to‘g‘ri va oqilona foydalanish zarurdir va shu bilan birgalikda ulardan samarali foydalanish yo‘llarini izlab topish lozimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Ашурметов О.А., Рахимова Т.Т., Рахимова А.Т., Ҳикматов Ш.Х. Экология. Тошкент, Чинор ЕНК”, 2008, 133бет.
2. Зокиров. Қ.З, Жамолхонов. Х.А. Ўзбек ботаника терминологияси масалалари. Тошкент, “Фан”1996, 43 бет.
3. Зоҳидов Ҳ. Шифо хазинаси. Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2000, 176 бет.
4. Иргашев Ш. Табиатнинг ўзи табиб.Т ошкент, “Абу Али ибн Сино”, 2003, 44-45 бетлар.
5. Matkarimova A.A., Maxkamov T.X., Maxmudova M.M., Azizov X.Ya., Vaisova G.B. Botanika. - Toshkent: "CO TO PRINT" 2020. 296 b.
6. Tulaganova M., Yuldashev A.S. O‘zbekistonda keng tarqalgan foydali o‘simliklar. Toshkent, “Universitet”, 2013, 79 бет.